

SO'FI ALLOHYORNING "MUROD UL-ORIFIN" ASARI HAQIDA

Sayfiddin Sayfulloh,

O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'lim boshlig'i, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Anotatsiya. Mazkur maqolada So'fi Allohyorning "Murod ul-orifin" asari tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati, tasavvufiy qarashlari hamda shariat va tariqat masalalarining yoritilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, asarda ilgari surilgan komil inson, muhabbat, tavakkul va ma'rifat g'oyalari yoritilib, uning o'zbek tasavvufiy adabiyotidagi o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: So'fi Allohyor, Murod ul-orifin, tasavvuf, irfon, shariat, tariqat, komil inson, ma'rifat, muhabbat, tavakkul, murid, shayx, tasavvufiy adabiyot.

Аннотация. В данной статье анализируется произведение Суфи Аллохёра «Мурод ул-орифин». Рассматриваются история создания произведения, его содержание и сущность, суфийские воззрения автора, а также освещение вопросов шариата и тариката. Кроме того, раскрываются идеи совершенного человека, любви, упования на Бога (таваккул) и духовного познания (маърифат), представленные в произведении, и оценивается его место в узбекской суфийской литературе.

Ключевые слова: Суфи Аллохёр, «Мурод ул-орифин», суфизм, ирфан, шариат, тарикат, совершенный человек, маърифат, любовь, таваккул, murid, шейх, суфийская литература.

Abstract. This article analyzes Sufi Allohyor's work "Murod ul-Orifin." It examines the history of the work's creation, its content and essence, the author's Sufi views, as well as the interpretation of Sharia and Tariqa issues. In addition, the article explores the concepts of the perfect human being, love, trust in God (tawakkul), and spiritual enlightenment (ma'rifat) presented in the work, and evaluates its place in Uzbek Sufi literature.

Keywords: Sufi Allohyor, Murod ul-Orifin, Sufism, irfan, Sharia, Tariqa, perfect human being, ma'rifat, love, tawakkul, murid, sheikh, Sufi literature.

Kirish. So'fi Allohyorning "Murod ul-orifin" asari, yozilish tartibi bo'yicha to'rtinchi kitob hisoblanadi. Bu asar fors tilida yozilgan bo'lib, yurtimizda va xorijda uning bir qator qo'lyozma va toshbosma nusxalari bor. Unda asosan tasavvuf va irfon, shariat va tariqat masalalari, hikmatli baytlar va ibratli rivoyatlar o'rin olgan.

Kitob odatdagidek odobi tasnifga ko'ra, Alloh taolaga hamd va na't bilan boshlanadi. Hamdu sanodan so'ng muallif - Allohyor ibn Allohquli asarning muqaddimasida kitobning mavzusi va yaratilish tarixiga ishora qilib, shunday deydi: "...do'stlar bilan mashvarat qilib, "Maslak ul-muttaqin", so'ngra "Sabot ul-ojizin" keyin "Maxzan ul-muti'in" kitoblari yozildi. Va diniy birodarlar (ahli sunnat) e'tiqodiga muvofiq tasavvuf va haq yo'lga undovchi bir nusxa qoralashimni talab qildilar".

Muallif ushbu nusxani yozish uchun Allohdan qalbini ochishini va boshqalarga ham manzur bir kitob bo'lishini so'rab duo qiladi. Uning yozishicha, "ulul albob" (aql egalari) bu asarni yozish uchun ruxsat berib, duoga qo'l ochadilar va bo'lajak kitobga "Murod ul-orifin", deb nom beradilar. Ko'rinib turibdiki, So'fi Allohyor bu kitobini ham do'stlar iltimosiga binoan yozgan.

Adabiyotlar tahlili. Kitob yuzasidan adabiyotshunos olimlarimizdan N. Komilov, Ibrohim Haqqul, Sh. Sirojiddinov, Rashid Zohid, I.Suvonqulov va boshqalar ba'zi

ma'lumotlarni berib o'tganlar. Kitob hozircha yurtimizda tarjima bo'lgani yo'q.

“Murod ul-orifin” asari Eronlik olim Abbosali Vafoiy tomonidan bir necha nusxalari chog'ishtirilib, so'zboshi va izohlari bilan Tehronda nashr bo'lgan.[1]

Bu asar o'z davridayoq Movarounnah va Xuroson xalqlari orasida mashhur bo'lib, uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari tezda har yonga tarqalib ketadi. Birgina O'z FA Sharqshunoslik institutida 30 dan ortiq qo'lyozma nusxalari bor.[2] Shuningdek, bu asar 1910-yili Abdulla hoji va Abdurauf hojilar tarafidan Toshkentda “Porseva” nashriyotida chop etilgan. Bir yil o'tib, 1911-yil Abdurauf hoji tarafidan “G'ulom Hasan Orifjonov” matbaasida qayta mukammal nashri amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda So'fi Allohyorning “Murod ul-orifin” asari tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va tahliliy metodlar asosida o'rganildi. Asarning mazmun-mohiyati, tasavvufiy qarashlari hamda badiiy xususiyatlarini yoritishda matnshunoslik va germenevtik yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, asarda keltirilgan tasavvufiy tushunchalar va istilohlar ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning mazmuni ochib berildi. Tadqiqot jarayonida So'fi Allohyor merosiga oid ilmiy manbalar hamda asarning nashr va qo'lyozma nusxalari haqidagi ma'lumotlarga tayanildi.

Tahlillar va natijalar. Kitobning kirish qismi: “Bu kitob so'fiylik ismi va so'fiylik qismi, ularning ilmi va odatlari haqida bo'lib, bir necha fasldan iborat. Avvalgi fasl so'fi so'zining ma'nosi, ular nega so'fiy atalishi va ularning guruhlarini qanday shakllangan?” jummalari bilan boshlanadi.

“So'fiy” istilohiga berilgan sharhlar ko'p. Lekin “Murod ul-orifin” dagi talqin ancha kengligi va qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Adib bu istilohni sharhlash uchun Mustamliy Buxoriyning (vaf. 1043) “Taarruf sharhi”, Imom G'azzoliyning (1058-1111) “Kimyoi saodat” kabi asarlariga ham murojaat qiladi.

Muallif kirish qismining oxirini 37 baytdan iborat she'riy “Munojot”i bilan yakunlaydi: She'r shu misralar bilan boshlanadi:

Ilohi nuri maqsudam zi dargoh,

Bikun tobanda to banda ravad roh.

Ba tavfiqi hidoyat dini moro,

Chunon oro, ba a'do nabvad oro.

Salomat dor iymonam hamisha,

Chu naxli xuld kun bo shoxu resha.

Ilohi toki men tirik ekanman, dargohingdan maqsad nurimni porloq (ravshan) qil. Hidoyat tavfiqi bilan dinimizni shunday chiroyli qilki, dushmanlarda bunday chiroy bo'lmasin! Xuddi jannat daraxtiningi shoxu ildizlari kabi iymonimni hamisha salomat qil!

Keyingi satrlarda So'fi Allohyor ilmu ma'rifatni, to'g'ri yo'lda yurishni va Allohning o'ziga oshiq bo'lishni, solih insonlar kabi omonat jonni salomat eltishni, mahshargohda sharmanda bo'lmaslikni, qalbiga ilohiy sharob qo'yilishini, dunyoga aldanib qolmaslikni, umuman, har taraflama Allohning marhamat qilishini, yomonliklardan asrashini iltijo

qilib, soʻraydi.

Kitobning hamd qismidan keyin 11 baytli “Na’ti nabi sallallohu alayhi va sahbihi va sallam” keladi. Unda she’riy yoʻl bilan Paygʻambar alayhissalomning sifatleri va fazilatleri keltiriladi.

Keyingi baytlarda hazrat Paygʻambarimizning islomni himoya qilganleri, kechalari tahajjud oʻqiganleri, me’rojga chiqqanleri va hokazo fazilatlaridan bahs yuritadi.

Na’t qismidan keyin 4 satr “Alqobi chahor yori bosafu” (safoli toʻrt yorning ismleri) keladi.

Hamdu na’tlardan keyin kitobning asosiy qismi boshlanadi.

Kitob oʻn olti fasldan iborat boʻlib, har faslda tasavvufning u yoki bu masalasidan bahs yuritiladi. Va har bir fasl oxirida mavzu bilan aloqador masnaviy yoʻlida she’riy parchalar beriladi. Umuman she’rlar kitobda jami 653 ta baytdan iborat. Unda muallif har bir fasl mazmuniga muvofiq tajnis, tashbih, talmih va istioralar qoʻllab, mazmunan chuqur baytlar yaratib, shoirona mahoratini koʻrsatgan. Bu baytlar alohida koʻchirilib, Qozonda 1858-yilda nashr boʻlgan. Mazkur she’riy parchalarda murakkab tajnislar, harfiy san’atlar va istioralar qoʻllangani uchun hamma ham oson tushunavermagan. Shuni inobatga olib, Abdulmuttalib Bulgʻoriy asar baytlarini alohida sharhlagan. Bu sharh Buxoroda Kogon matbaasida 1908-yil nashr etilgan.

Muallif bu asarida tasavvufning muhim masalalari ustida toʻxtalgan. Ularning har birini iloji boricha oyat va hadislar hamda rivoyatlar asosida kitobxonga tushuntirishga harakat qilgan. Soʻfi Allohyor Sharqdagi juda koʻp asarlarning nomini keltiradi va ulardan iqtibos olib, fikru xulosalarini dalillashga harakat qiladi.

Kitobda har bir faslning ichida faslchalar berilib, asosiy mavzuni teranroq ochib berishga xizmat qiladi. Masalan Oʻn toʻrtinchi faslda muhabbat mavzusi shunday tasnif qilingan: “Muhabbat darajalari haqida”, “Xudo va banda muhabbati haqida usul ahlining soʻzlari”, “Maʼrifat ahlininig muhabbat haqidagi soʻzlari”, “Xoliqda halok (foni) boʻlish haqida”, “Muhabbatni daʼvo qilish va haqiqiy muhabbat haqida”, “Muhabbat turlari haqida”, “Muhiblar ahvolining nihoyati haqida”, “Vajd, samoʻ va tavojud haqida”, “Vajd va gʻalaba haqida”. “Gʻolib va magʻlub haqida”, “Sukr” haqida, “Sahv haqida”, “Gʻayb va shuhud” haqida, “Shuhud martabalari” haqida, “Rizo” haqida. “Rizo va uning duoga nisbati”, Faslning she’riy xulosasi.

Mutafakkir tasavvufni mutlaqo shariatga tobe ekanligini, “Inson shariat zohiriga boʻysunib, botinini taqvo bilan ziynatlash” kerakligini aytadi.

Soʻfi Allohyor tasavvufning mashhur namoyondalarini tilga olib oʻtadi, jumladan, Mansuri Halloj haqida ham toʻxtaladi. Uning harakatini shariat tomonidan turib qoralaydi, tariqat tarafidan esa oqlaydi.

Mutafakir tariqatlar haqida gapirib, botil, adashgan tariqatlarni qoralaydi. Tasavvuf nazariyasi bilan bogʻliq tushunchalarni batafsil yoritadi. Asarda shayxlik, muridlik, oriflik, tavakkul, ayoni sobita, asʻhobi yamin, nafsi ammora, anal haq, uns, amri maʼruf, iftiqor,

ahli istigʻroq, ahli bayt, ahli hadis, ahli sunnat va jamoat, ahli suffa, buʻd, bidʻat, baqo, balo, taʻvil, tajalli, tasfiya, tasavvuf, tafriqa, tafrid, tavojud, tavba, tavid, tavakkul, jazb, Jabbor, jamol, jalol, jihod, jahmiyya, javhar, hijob, hudus, hashr, haqq ul – yaqin, hilm, hayroni, halol, hululiyon, hayrat, xos ul-xos, xayr, dor ul-fano, dori baqo sukr, rizo, ruʻyat, shubha, shariat shafolat, athiyyot, zavq, fano, baqo, muhabbat, sabr, sohib valoyat, karomat va shunga oʻxshab yuzlab tasavvuf istilohlarini va shu istilohlar bilan bogʻliq hikmatli soʻzlar va fikru mulohazalarni batafsil yoritib beradi.

Biz muhtaram kitobxonlarni bu asar bilan tanishtirish barobarida, asardan ayrim parchalarni tarjima qilib, oʻquvchilarga havola qilishni lozim topdik.

Bismillohir rahmonir rahim

“...Doʻstlar bilan mashvarat qilib, “Maslak ul-muttaqin”, soʻngra “Sabot ul-ojizin” keyin “Maxzan ul-mutiʻin” kitoblari yozildi. Va diniy birodarlar (ahli sunnat) eʼtiqodiga muvofiq tasavvuf va haq yoʻlga undovchi bir nusxa qoralashimni talab qildilar”.

“Ilohi nuri maqsudam zi dargoh,
Bikun tobanda to banda ravad roh.
Ba tavfiqi hidoyat dini moro,
Chunon oro, ba aʻdo nabvad oro.
Salomat dor iymonam hamisha,
Chu naxli xuld kun bo shoxu resha.

Ilohi toki men tirik ekanman, dargohingdan maqsad nurimni porloq (ravshan) qil.
Hidoyat tavfiqi bilan dinimizni shunday chiroyli qilki, dushmanlarda bunday chiroy boʻlmasin! Xuddi jannat daraxtining shoxu ildizlari kabi iymonimni hamisha salomat qil!”

Agarchandiki, dar sijni baloyam,
Ba sad oludagiho mubtaloyam.
Maro boshad hanuz ummidvori,
Ba rahmoni az in muhlik barori.
Turo oson buvad az mehriboni,
Ba maqsudeki, man doram rasoni.

Agarchi balo zindonida boʻlsam ham, yuzlab nopokliklarga mubtalo boʻlsam ham, hanuz umidvormanki, rahmon sifati bilan bu halokatli narsalardan xalos qilasan. Mehribonlik yuzasidan mening maqsadlarimga yetkazish senga osondir!”

Muhammadroki, xalqulloh “amin” kun,
Xudoyash rahmatan lil olamin guft.
Rusulro u buvad, xotimu xotam,
Shayotinro azin fazlast motam.

Muhammadni xalqulloh (Allohning xalqlari) “amin” (omonatdor) deb atashardi. Alloh esa u zotni “rahmatan lil olamin” [3] (olamlarga rahmat) deb sifatlatadi. U Paygʻambarlarga ham xotim (oxirgisi, soʻnggisi) ham xotam [4]dir.

Zihi rifʻatmahal, qadrash rafiʻ ast,

Usoti ummatonro shafi' ast.

Shuda parvonaash chandon mushakkik,

Banuri sham'i "iqra' bismi rabbik"[5].

Uning joyi, o'rni qanday ham yuksak! Qadri naqadar buyuk! Gunohkor ummatlarining shafatchisidir. "Allohning nomi bilan o'qi" oyati sham'ining nuri bilan unga shak keltirgan qancha kishilar (haqiqatini bilgach) parvonasi bo'ldilar.

"...Adablardan biri shuki, kishi o'z shayxini agar shariatparvar ko'rsa, (murid) shayxi haqida shunday e'tiqod qilish kerakki, "shayxim hozirgi davrda men ko'rgan va eshitgan shayxlarning eng fozilrog'idir". Agar boshqa maxfiy avliyolar bo'lsalar, U Alloh bilguvchidir. Va agar "falon shayx mening shayximdan afzal", deb muridning ko'nglidan o'tsa, shayxining so'zlari uning qalbiga ta'sir qilmaydi va natija bermaydi. Va boshqa bir odob shuki, albatta shayxning maqom-martabasini o'zining maqom-martabasidan afzal deb bilishi kerak. Va agar shunday bo'lmasa, o'zining ixtiyor jilovini shayxiga topshirolmaydi. Chunki irodatida xalal yetgan bo'ladi, bas muridlik foyda bermaydi. Va boshqa bir odob shuki, hamma ishda shayxning savobli ko'rsatmasi bilan ish qilishi kerak, toki, foyda topsin. Yana bir odob shuki, shayxning so'zini rad va inkor qilmasin. Agar e'tiqodida shayxning so'ziga nisbatan xilof bo'lsa, eng ma'qul yo'l bilan uni hal qilish payida bo'lsin. Yoki o'z maqsadini pinhona shayxiga aytsin!"

"...Ba'zi johillar "shayxning kufri, muridning iymoni" deydilar. Agar shayx shariatga zid bo'lgan har qanday noravo ishlarni qilsa va muridlardan biri bunday bid'atchi, aldanchi shayxdan yuz o'girsas, boshqa ko'r muridlar aytishicha, go'yo Allohu taolo uni qora itga aylantirar emish..., " ...bir toifa insonlar biz murshidimiz, tariqat ahlimiz, deb da'vo qilib chiqadilar. Va ulardan birortasi, kasbu kamolini oshirish uchun biror-bir boshqa darveshni huzuriga boradi. Qolganlar esa bu talabgor muridni murtad deydilar. U murtad bo'lmaydi. Qachon Allohni inkor qilsa, o'shanda murtad bo'ladi."

"...Tuhfat ul-mutakallimin" degan kitobda aytiladiki, "Bilgilki, maloikaning xoslari: misli Jabrail va Mekoil va Isrofil va Azroillar Abubakr va sahobalarning boshqalaridan afzaldir. Va yana shu kitobda borki: " Ahli sunnat val jamoat (ulamolari) aytadiki, albatta Rasul (sallallohu alayhi va sallam) nabilar va rasullardan afzaldir va rasullarning ba'zisi boshqalaridan afzaldir. Allohu taolo ham buyuradiki:" Ushbu Rasullarning ba'zisi ba'zilaridan afzaldir"[6] . Va "Hisn ul-iymon"da aytiladiki:" Bu daraja maqomdadir, risolatda emas.Chunki risolatda hammalari barobardirlar. Va din va millat – hammasi birdir. Ko'rmadingim, (Alloh taolo) " Ushbu rasullar", deb risolatda hammalarini bir xil jamlab aytdi. Ana undan keyin ba'zilarini ba'zilaridan fazilatda ortiqliklarini zikr qildi. Allohu taoloning qavliga ko'ra:" Ba'zilaridan ba'zilarini afzal qildik". Chunonchi mo'minlar iymon yo'liga ko'ra hammalari barobardirlar. Lekin darajalar va ahvolga ko'ra farqlidirlar. Va shunga ko'ra, Rasul alayhissalom aytganlarki:" Meni birodarim Yunusdan

ustun ko‘rmanglar”. Ya’ni (bu o‘rinda) nubuvvat va risolat nazarda tutilgan. Lekin daraja va afzllikda aytganki:” Men odam farzandining sayyidiman”.

“...Solik agar tariqat yo‘lida qadam qo‘ymoqchi bo‘lsa, u bir piri komil mukammilni topishi shart bo‘ladi.”Nuriya” degan risolada yozilishicha, “ agar tariqat yo‘liga qadam qo‘yishni istasang senga avvalo valoyat sohibi bo‘lgan shayxni talab qilish kerak, chunki tariqat yo‘li odamxo‘r sahrodir va unda juda ko‘p qaroqchilar bor. Bas dalilsiz va karvonboshisiz u sahroga qadam qo‘yib bo‘lmaydi. Agar senga Haq subhonahu taolo bunday shayxni yetkazsa, o‘zingni “O‘lmas burun o‘linglar”, amriga muvofiq o‘zingini shayxni qo‘lidagi o‘lik kabi hisobla va shayxning ishorati bilan barcha aloyiq (bordi-keldilar, aloqalar, bog‘lanishlar)dan va tabiatingga ulfat bo‘lgan narsalardan va ko‘ngilni barcha insoniy shahvatlardan va hayvoniy hazoyiz (nasiba, xursadchlik, lazzat) va tamattu‘ot (bahralanish, foydalanish)lardan xoli qilishing kerak. Chunki tariqat nafsdan kechish bo‘lsa, shariat havoyi nafsdan kechish bo‘lib, seningdir do‘zaxingdir. Sen agar shu do‘zaxdan kechsang Uning fazli bilan ne‘mat to‘la jannatga va Karim diydoriga yetishasan!

Zeroki, bu havoyi nafs, (yaxshiliklardan) man‘ qiluvchi va o‘zlingni hijobidir. Modomiki sen o‘zlingdan kechmasang, Haqdan yiroqdasan...”

(Imom G‘azzoliyning) “Kimyoi saodat” kitobida kelganki, Agar o‘zingni tanishni istasang, seni kim yaratganini bil. Sening borlig‘ing ikka narsa bilandir: Biri bu zohiriy badaningdurki, uni tan deydilar va yana biri botiniydurki, uni nafs deydilar va jon deydilar va dil deb ham ataydilar. Va uni botin basirati bilan ko‘rib bo‘ladi va zohiriy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Va sening haqiqating o‘sha botin ma‘nosidagi narsa. Va undan boshqa tobe’, lashkar uning xizmatkoridir. Va biz uning nomini dil deb ataymiz. Bilgilki, odamiylikning haqiqati (moyasi) deb bilganimizni ruh deb ataymiz va goh nafs. Bilgilki, dil deganimiz, insonning chap ko‘kragidagi bir parcha qadri yo‘q go‘sht emas. Chunki bunday dil tuyalarda ham bor, o‘liklarda ham bor. Bu olamda bor bo‘lgan har narsaki, zohiriy ko‘z bilan ko‘riladi uni “olami shahodat” deydilar. Dil haqiqati esa bu olamdan emas. Bu olamga g‘arib (musofir) va yo‘lovchi bo‘lib kelgan. Va ko‘rinib turgan u go‘sht parchasi esa uning markabi va olati (asbob-anjomi)dir”.

“..Ta’arrufning sharhida aytiladiki, Sulaymon alayhissalom o‘z mamlakatida tongda boylarni chaqirdi va o‘zi darveshlarning yaqiniga o‘tirdi. Va aytdiki: Miskinlarning miskiniman. Hasan Basriy rahimahulloh aytdi: “Tavozu’ (xoksorlik, kamtarlik) o‘zingdan fozilroq kimni ko‘rsang ham undan uzoqlashmog‘ingdir”. Bittasi Shibliyni oldiga keldi va aytdi: “Sen kimsan?”. Aytdi:” Oyoq ostida xor bo‘lib yotgan nutfa (sperma, maniy)man”. Ya’ni undan pastroq (xorroq, tubanroq) narsa yo‘q. Biri hazrat Ali raziyallohu anhuni tushida ko‘rdi va “ Menga nashat qil”, dedi. Aytdi:” Oxirat savobi uchun boylarning darveshlar oldida xoksorlik qilishi yaxshi , savobli ishdir. Lekin Xudoyi taolo fazlidan umid qilgan holda , darveshlarning boylarga takabbarlik qilishi, undan ham savobliroqdir”.

Xulosa. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, So‘fi Allohyorning “Murod ul-orifin” asari

tasavvuf ta'limotini sharhlash va suluk yo'lidagi nozik ma'nolarni ochib berishga bag'ishlangan muhim manbadir. Asarda shariat va tariqat uyg'unligi, komil inson tarbiyasi, muhabbat, tavakkul va ma'rifat kabi tasavvufiy g'oyalar keng yoritilgan. Muallif o'z fikrlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy manbalar asosida bayon etadi. Shuningdek, asar o'zining badiiy qimmatini va boy tasavvufiy mazmuni bilan o'zbek mumtoz adabiyoti hamda tasavvuf tafakkuri tarixida muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:

1. Сўфи Аллоҳёр. Мурод ул-орифин. Техрон. “Интишороти сухан”.1378 хижрий шамсий. (Китобнинг бир неча нусхаларини қиёслаб, сўзбоши ва изоҳлар билан нашрга тайёрловчи Аббосали Вафойй. Қўлимиздаги қўлёзма ва тошбосма нусхалардан кўра Эронлик олимнинг китоби анча пишиқ ва мукамал бўлгани учун шу нусхадан фойдаланамиз ва бундан кейин бу асарнинг саҳифасини кўрсатиш билан кифояланамиз. Р.С.)
2. Биз мазкур институт фондида: № 12786; №12385; №10870; №3770; №4075; № 6106; № 6327; №10121; № 2900 ва ҳок. рақамли қўлёзмаларни кўриб чиқдик. Улар орасида 1753 йил кўчирилган **№6327** рақамли қўлёзма энг қадимий нусхалиги билан алаохда эътиборга молик. (Р.С.)
3. Биз сени (Эй Муҳаммад) оламларга раҳмат ўлароқ юбордик. (“Анбиё” сураси, 107-оят).
4. Хотам **1.** Мухр, имзо ўрнига мактуб охирига босиладиган ва мактуб эгасининг номи ўйиладиган тамға (бу тамға кўпинча узукнинг кўзига ўрнатилган ва қўлга тақиб юрилган). **2.** Узукнинг кўзи. **3.** Сўнгги, охириги; Бу ўринда гўё ҳазрат Пайғамбаримиз барча пайғамбарларнинг мактуб охирида босиладиган муҳри каби хотималовчисидир. (С.Р.)
5. Алақ сурасининг 1-оятига ишора
6. Қаранг: “Бақара сураси”, 253-оят.

Ajlniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934